ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRIDA AYOL OBRAZINING BADIIY IFODASI SIFATIDA

Durdona Mamatqulova Iskandar qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
+99894 947 99 95
durdona888@gmail.com

Annotatsiya: *Bu maqolada ayollar obrazining faqatgina maishiy emas, balki madaniy-estetik, tarbiyaviy, falsafiy qatlamlari ham ochib beriladi Ayol obrazi milliy adabiyotimizda, nafaqat, oila va muhabbat timsoli, balki xalqning or-nomusi, sabr-matonati va donoligining timsoli sifatida talqin qilinganligi asosli misollar asosida ochib berilgan. Hamda ayol obrazi butun dunyo talqinida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ayol obrazi, matonat, badiiy talqin, ijodkor, nazariyalar, shaxsiy erkinlik, adabiyot, ruhiyat, sadoqat, tanqid, g‘arb.*

Abstract: *This article reveals not only the domestic, but also the cultural-aesthetic, educational, and philosophical layers of the image of women. The image of a woman in our national literature is interpreted not only as a symbol of family and love, but also as a symbol of the honor, patience, fortitude, and wisdom of the people, based on well-founded examples. The image of a woman is also covered in the interpretation of the whole world.*

Keywords: *Image of a woman, fortitude, artistic interpretation, creator, theories, personal freedom, literature, spirituality, loyalty, criticism, western.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются не только бытовые, но и культурно-эстетические, образовательные и философские аспекты образа женщины. Образ женщины в нашей национальной литературе*

интерпретируется не только как символ семьи и любви, но и как символ чести, терпения, стойкости и мудрости народа, что подтверждается многочисленными примерами. Образ женщины также рассматривается в интерпретации всего мира.

Ключевые слова: *Образ женщины, стойкость, художественная интерпретация, творец, теории, личная свобода, литература, духовность, верность, критика, западный.*

O‘zbek adabiyotida ayol obraiz XX arsning ikkinchi yarmida keskin o‘zgarishga uchradi:an’anaviy ayol obrazini individualism qarashlariga ega bo‘lgan obraz egallay boshladi.Bu esa o‘z ornida zamonaviy adabiyotda feministik adabiyotshunoslik nazariyalarining shakillanishiga olib keldi Bu nazariyalar ayol identiteti,jamiyatdagi ro‘li,shaxsiy erkinligi orqali tahlil qilinadi.Jahon adabiyotida bu nazariyalar Simona de Bovuar va Judit Batler ijodida yaqqol ko‘rinadi.Unga ko‘ra ayol-shaxsiy identitet ya’ni birlik,shaxsiy erkinlikka ega bo‘lgan jamiyatning ajralmas bo‘lagidir.Nafaqat jahon ,balki o‘zbek zamonaviy adabiyotida ham ayol obrazining beqiyosligi va erkinligi go‘zal misralar orqali yoritiladi.

An’anaviy badiiy adabiyotda ayol obrazi,asosan,ona timsolida gavdalantiriladi.Xususan,To‘g‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida onaning fidoiyligi,ayolning oilaviy hayotdagi sabr-matonati asosiy g‘oya sifatida beriladi.Zamonaviy o‘zbek adabiyotida esa fidoiylik o‘z o‘rnini shaxsiy erkinlikka,sabr-toqat esa o‘z manfaatlarining jamiyatdan ustun qo‘yilishiga bo‘shatib berdi.Kate Cholpinning “Uyg‘onish” asari g‘arbda erta feministik asarlardan biri bo‘lib, Edne Pontelye-oilaviy stereotiplarga zid ravishda o‘z erkinligini izlaydigan ayol qahramon muhokama markazida bo‘ladi.Feminizm falsafasining asosiy matni sifatida Virginia Wolfning

“Shaxsiy xona” asaridagi quyida ayol ijodkorining jamiyatdagi o‘rniga quyidagicha ta’rif beradi”Ayolning ijod qilishi uchun pul va o‘z xonasi bo‘lishi kerak”.Zamonaviy feminizmning eng ta’sirli ifodalaridan bo‘lgan Margaret Atvud asarlarida ayol huquqlari,tanlov erkinligib patriarxal jamiyatning zulmi keskin tanqid ostiga olinadi.Ushbu asarlar ayollarni tarix davomida “ikkinchi jins”sifatid ako‘rish sabablarini tahlil qiladi.Ko‘rinib turibdiki,ayol obrazi yillar davomida nafaqat badiiy talqinda,balki ijtimoiy talqinda ham turli o‘zgarishlarga uchragan.

Adabiyot inson ruhiyatining, jamiyat tarixining aksidir. O‘zbek adabiyotida ayol obrazi qadimdan muhim o‘rin egallab kelgan. Ayol qahramonlar ba’zan mehribon ona, sadoqatli yor, donishmand tarbiyachi sifatida tasvirlangan bo‘lsa, ba’zan esa fojiali qismat sohibasi, zulm qurboni sifatida ko‘rsatilgan. Asrlar o‘tishi bilan adabiyotda ayol obrazining talqini ham o‘zgarib bordi. O‘zbek adabiyotida ayol obrazining tarixiy shakllanishini dastavval xalq og’zaki ijodi bilan bog’liqligi hech birimizga sir emas.

Zulfiyaning:”Uni farishtalar ham qo‘riqlaydi”, deya berilgan ta’rifida ayolning klassik,an’anaviy timsoli sadoqat, mehribonlik va ma’naviy poklik orqali gavdalantirilsa,Saida Zunnunovaning sheriyatida ayolning jamiyatdagi o‘rni va erkaklar bilan tenglik masalalae ko‘tariladi.Zamonaviy hikoyalar orasida ham ayolning o‘z haq-huquqi uchun kurashuvchi mustaqil shaxs sifatida tasvirlagan ijodkorlar ham uchraydi.Jumladan,Nurilla Cho‘qiboyning “Ayol joni” hikoyasi gapimizning yaqqol misolidir.

Barchamizga ayonki, O’zbek adabiyotini XX asr O’zbek adabiyoti ayollar obrazisiz tasavvur etib bo’lmaydi.XX asr boshlarida jadid adabiyoti rivojlanishi bilan ayol mavzusi yangi yo‘nalishga o‘tdi. Jadid yozuvchilar jamiyatda ayollar huquqlari va ularning ilm olish zarurligini ko‘tarib chiqdilar.Xususan, Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar asarida Kumush-u

Zaynab, Cho'lponning "Kecha va Kunduz" asarida Zebi timsoli, Hanza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari" asari qahramoni Maryam timsolida ko'rishimiz mumkin. Sovet davri adabiyotida ayol obrazi yangi ideologiya ta'sirida shakllandi. Endi ayol faqat oilada emas, balki jamiyat hayotida ham muhim rol o'ynaydigan shaxs sifatida tasvirlandi.O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridagi Robiya, Ra'no, Munavvar timsollari, Shuhratning "Oltin zanglamas" asaridagi Jannat, Musharraf , Adolat xola va Aziza timsollari o'sha davrning qora kunlarida o'zbek ayollarining sabr-matonati, vafosi, muhabbati haqida ro'yi rost hikoya qiladi. Robiya oddiy bir qiz bo'lishiga qaramay, uning ichki dunyosi, orzulari va tuyg'ulari nihoyatda chuqur. U unashtirilgan qaysi qaylig'i urushga ketib, undan biron bir darak bo'lmasa-da, yillar davomida uni sadoqat bilan kutadi. Bu kutish faqat tashqi ko'rinishda emas, balki Robiyaning qalbida, o'y-fikrlari va xotiralarida ham iz qoldiradi. Hatto taqdir uni boshqa kishiga turmushga chiqishga majbur etsa ham, Robiya bir lahza bo'lsa-da chin dildan sevgan yorini unutmaydi. Uning nomini muqaddas yodlab, yuragining eng nozik burchagida abadiy saqlaydi.Robiyaning bu fazilatlari o'zbek ayolining milliy xarakteriga xos bo'lgan sadoqat va vafoning yorqin timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Zero, Robiyaning taqdiri nafaqat shaxsiy fojia, balki o'sha davr hayotining, urushning, kutishning og'ir sinovlari oldida ham insoniy qadr-qimmatni saqlay olish namunasi sifatida qimmatlidir.Shunday qilib, Robiya obrazi nafaqat bir badiiy qahramon, balki o'zbek ayolining sadoqati, mehr-muhabbati va vafosi ramziga aylangan o'lmas siymo sifatida qalblarda o'chmas iz qoldiradi. Uning hayoti va ruhiy kechinmalari bugun ham o'quvchini chuqur o'ylantiradi, sadoqatning qanchalik muqaddas tuyg'u ekanini yana bir bor yodga soladi.Mustaqillikdan keyingi adabiyotda ayol obrazi yanada murakkab va realistik tarzda tasvirlana boshladi. Endilikda ayol nafaqat go'zallik yoki

fidoyilik timsoli, balki murakkab qismat sohibasi sifatida ham gavdalanmoqda.Bugungi adabiyotda ayol qahramonlar jamiyatdagi muammolar – gender tengligi, oilaviy zo‘ravonlik, ta’lim va erkinlik masalalari bilan bog‘liq holda tasvirlanmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, O‘zbek adabiyotida ayol obrazi asrlar davomida turli xil talqin qilingan. Qadimiy eposlardan tortib, mumtoz adabiyot, jadid adabiyoti, sovet davri va zamonaviy adabiyotga qadar ayol obrazlari o‘zgarib, rivojlanib kelgan. Bu qarashlarni Yevropa miqyosida ham qarasak, Agar qadimda ayol asosan go‘zallik va sadoqat timsoli sifatida tasvirlangan bo‘lsa, zamonaviy adabiyotda u mustaqil shaxs, jamiyatning faol a’zosi sifatida gavdalanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Yo‘ldoshev, Q. (2007). O‘zbek adabiyotida obraz yaratish mahorati. Toshkent: Sharq.

2.O‘rinboyeva, N. (2021). O‘zbek adabiyotida ayol obrazining o‘ziga xosligi. O‘zbek tili va adabiyoti, (5), 42–48.

3.Saidov, S. (2014). XX asr o‘zbek adabiyotida ijtimoiy obrazlar. Toshkent: Fan va texnologiya.

4.G‘aniyeva, S. (2020). Adabiy tanqid va tahlil. Toshkent: Akademnashr

5.Abdullayeva, Z. (2022). Ayol obrazi talqini: an’ana va yangilanish. Filologiya masalalari, (2), 33–39. 3.Ahmedova,N.”O‘zbek adabiyotida ayol obrazining o‘zgarish tendensiyalari”.- O‘Zmu Ilmiy axboroti,2021.

6.Saidova,M,”Zamonaviy romanlarda ayol identiteti masalasi”.Jahon adabiyoti jurnali,2023.

7.Atwood,M.The Handmaid’s Tale.Anchor Books,1998.

8.Chopin,K.The Awakening.Dower Publications,1993.